**Emro Science and Education**
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 1 (2025) · “Raqamli iqtisodiyot sharoitida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va yuqori i... DOI: 10.5281/zenodo.24317884

*Economics and Policy* 14.6 (2024): 371-383.
6. Normuradovich, Rahimov Eshmurod. "THE PROSPECTS OF UZBEKISTAN'S MEMBERSHIP IN THE WORLD TRADE ORGANIZATION." *International Journal of Education, Social Science & Humanities* 12 (2024): 418-425.
7. Ziyaviddinovna, Muyassar Mukhitdinova, Khadzhaev Khabibulla Sagdullaevich2 Fayziyev Shavkat, and Shakhobiddinovich3 Rakhimov Eshmurod Normurodovich. "Development of SME and increasing income of the population through Islamic financing." *Turkish Journal of Computer and Mathematics Education (TURCOMAT)* 12.10 (2021): 4869-4879.
8. Normuradovich, Rahimov Eshmurad. "WAYS TO INCREASE THE COMPETITIVENESS OF NATIONAL PRODUCTION IN THE PROCESS OF FOREIGN TRADE LIBERALIZATION." *Journal of Contemporary Business Law & Technology: Cyber Law, Blockchain, and Legal Innovations* 1 (2024): 17-24.
9. Amanullaevich Allayarov, S., and Eshmurod Normurodovich Rakhimov. "The Importance of Tax Potential on Increasing Economic Security of Regions." *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding* 9.2 (2022).
10. Raximov, Eshmurod Normuradovich. "BY INCREASING EXPORT CAPACITY ENSURING SUSTAINABLE ECONOMIC GROWTH." *Bulletin news in New Science Society International Scientific Journal* 2.1 (2025): 159-168.

## ISTE’MOL, JAMG’ARISH VA INVESTITSIYA

**Saydakbarova M**
*Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti*
*Andijon fakulteti o’qituvchisi*
**Jumaboyeva M**
*Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti*
*Andijon fakulteti kunduzgi ta’lim*
*shakli 2-kurs BHA-71/23 guruh talabasi*

Har bir insonning moliyaviy hayotida uchta asosiy faoliyat — iste’mol, jamg‘arish va investitsiya — markaziy o‘rin egallaydi. Ular orasidagi muvozanatni topish, daromadni ongli tarzda taqsimlash va kelajak uchun to‘g‘ri qarorlar qabul qilish orqali inson nafaqat moliyaviy xavfsizligini ta’minlaydi, balki farovon hayot sari qadam qo‘yadi. Iste’molga keladigon bo’lsak insonning kundalik ehtiyojlarini qondirish uchun mahsulotlar va xizmatlardan foydalanish jarayonidir. Oziq-ovqat,



Published: 24.05.2025
**Cite this article:** Saydakbarova M, Jumaboyeva M (2025). Iste’mol, jamg’arish va investitsiya. Emro Science and Education, 2(1). https://doi.org/10.5281/zenodo.24317884
*© 2025 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.*

kiyim, transport, kommunal to‘lovlar — bular barchasi iste’molga kiradi. Iste’mol hayot sifatini belgilaydi, ammo u me’yorida bo‘lishi lozim. Haddan ortiq yoki samarasiz iste’mol qilish insonni moliyaviy bosim ostiga tushirishi mumkin. Aynan shu sababli “aqlli iste’mol” tushunchasi muhim ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda-bu resurslardan tejamkor va samarali foydalanish deganidir.

**Iste’mol funksiyasi:**

Makroiqtisodiy tahlilda iste’mol **C = a + bY** formulasi bilan ifodalanadi, bu yerda:

- **C** – umumiy iste’mol,
- **a** – avtonom iste’mol (hatto daromad bo‘lmasa ham qilinadigan iste’mol),
- **b** – chegaraviy iste’mol moyilligi (yangi daromadning qancha qismi iste’molga sarflanadi),
- **Y** – daromad darajasi.

Iste’molga ta’sir etuvchi omillar;

1. Daromad darajasi- Inson qancha ko‘p daromad olsa, shuncha ko‘p mahsulot va xizmatlar iste’mol qilishi mumkin. Kam daromadli odamlar faqat asosiy ehtiyojlarga xarajat qiladi.
2. Narxlar darajasi- Mahsulot yoki xizmat narxi oshsa, iste’mol kamayadi. Narx tushsa, odatda talab ortadi.
3. Reklama va marketing- Reklama odamlarni yangi mahsulotlar sotib olishga undaydi. Marketing orqali mahsulot haqidagi fikrlar shakllanadi.

Adam Smit iqtisodiyotni o‘z-o‘zini tartiblaydigan mexanizm deb hisoblab, iste’molni iqtisodiy faoliyatning asosiy maqsadi deb ta’riflagan. U "ko‘rinmas qo‘l" nazariyasini ilgari surib, har bir inson o‘z manfaatini ko‘zlab harakat qilsa, jamiyat ham foyda ko‘radi, degan. Adim Smitni go’yasi bo’yicha Iste’mol — iqtisodiy rivojlanishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida qaraldi.

Jamgarish esa kelajakdagi ehtiyojlar uchun moliyaviy resurslarni saqlash jarayonidir. Insonlar jamg‘arma qilish orqali kutilmagan vaziyatlarga tayyor bo‘lishadi, shu bilan birga, moliyaviy mustahkamlikni ta’minlashadi. Jamg‘arishning ahamiyati juda katta, chunki bu nafaqat kelajakdagi ehtiyojlar, balki sog‘lom iqtisodiy qarorlar qabul qilishga ham yordam beradi. Jamg’arish haqida kengroq ma’lumot beradigon bo’lsam daromadning ma’lum qismini hozirgi vaqtda iste’mol qilmasdan, kelajakda foydalanish uchun saqlash jarayonidir. Jamg‘arma faqat pullar yoki mol-mulkni saqlashdan iborat emas, balki insonning iqtisodiy barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladigan uzluksiz jarayonni anglatadi. Misol qilib aytganda ,agar bir kishi hozirgi

daromadining 10% ini jamg‘arsa, bu kelajakda o‘zi yoki oilasi uchun tibbiy xizmatlar, ta’lim yoki nafaqaga yordam beradi.

**Jamg’arma funksiyasining formulasi:**

$$S=-a+(1-b)Y$$

Bu yerda:

- **S** — jamg‘arish miqdori
- **a** — avtonom iste’mol (daromad bo‘lmasa ham qilinadigan sarf)
- **b** — chegaraviy iste’mol moyilligi (MPC — marginal propensity to consume)
- **(1 – b)** — chegaraviy jamg‘arish moyilligi (MPS — marginal propensity to save)
- **Y** — daromad

**Misol uchun**; Avtonom iste’mol a = 50, chegaraviy iste’mol moyilligi b = 0.8, demak: $S=-50+(1-0.8)Y=-50+0.2YS = -50 + (1 - 0.8)Y = -50 +0.2YS=-50+(1-0.8)Y= -50+0.2Y$

Agar daromad Y = 500 bo‘lsa:

$$S=-50+0.2\times500=-50+100=50$$

Bu inson 500 daromaddan 50 ni jamg‘aradi degani.

Jamg’armaga ta’sir etuvchi omillar:

1. Daromad darajasi- yuqori daromad – ortiqcha mablag‘ tejash imkonini beradi. Past daromad – zarur xarajatlardan keyin tejash imkoni kamroq bo‘ladi.
2. Xarajatlar darajasi- asosiy ehtiyojlar (ovqat, uy-joy, transport) qancha ko‘p bo‘lsa, tejash qiyinlashadi. Ortacha yoki past xarajatlar jamg‘arishga ko‘proq imkon beradi.
3. Yashash joyi (makon)- shahar va qishloq o‘rtasidagi turmush narxi farqi jamg‘armaga ta’sir qiladi. Ba’zi hududlarda xizmatlar va mahsulotlar arzonroq bo‘lib, tejash osonlashadi.

Nima uchun insonlar jamg’arishi kerak asosiy sabablar;

- **Favqulodda holatlar uchun** (kasallik, ishdan bo‘shash, tabiiy ofatlar)
- **Katta xarajatlar uchun** (uy, avtomobil, to‘y, ta’lim)
- **Keksalik uchun** (pensiyaga chiqishda yordam bo‘lishi uchun)
- **Investitsiya qilish uchun** (jamg‘arilgan mablag‘dan foyda ko‘rish)
- **Moliyaviy mustaqillik va erkinlik uchun**

Endigi navbat investitsiyaga mablag‘, resurs, vaqt yoki kapitalni ma’lum bir loyiha, faoliyat yoki aktivga yo‘naltirish orqali kelajakda iqtisodiy, moliyaviy yoki ijtimoiy daromad (foyda) olishga qaratilgan jarayondir.

Investitsiyalar iqtisodiy rivojlanishda **asosiy harakatlantiruvchi kuch** hisoblanadi:

- Yangi korxonalar ochiladi
- Ish o‘rinlari yaratiladi
- Mahsulot va xizmatlar sifati oshadi
- Soliq tushumlari ortadi
- Texnologik yangiliklar kengayadi
- Tashqi investitsiyalar oqimi o‘sadi

Investitsiya qanday maqsadlar uchun ishlatiladi degan savolga quyidagicha javob beraman.

Kapitalni ko‘paytirish -Aksiya bozoriga sarmoya kiritish

Daromad manbai yaratish -Tijorat ko‘chmas mulk sotib olish, ijaraga berish

Kelajak xavfsizligini ta’minlash -Pensiya fondiga sarmoya kiritish

Innovatsiyani rivojlantirish -Texnologik startaplarga investitsiya

Ijtimoiy ta’sir -Ta’lim, sog‘liqni saqlash sohasiga sarmoya

Investitsiyaning asosiy turlari;

1.**Real investitsiya**

- Zavodlar
- Uskunalar
- Inshootlar
- Yer
- Texnologik jihozlar

2. **Moliyaviy investitsiyalar**

- Aksiyalar
- Obligatsiyalar
- Bank omonatlari
- Kriptovalyutalar

3**. To‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiya (FDI)**

- Investorni faol ishtirok etishi:
  - Kompaniya ochish
  - Ulush sotib olish (va boshqaruvda qatnashish)

4. **Portfel investitsiyasi**

- Faol boshqaruvsiz, passiv daromad uchun:
  - Qimmatli qog‘ozlarga mablag‘ kiritish
  - Fondlar orqali sarmoya

Mashhur investitsiyalar yondashuvlari;

1. **Warren Buffett – Value Investing**

- Bozorda haqiqiy qiymatidan arzon turadigan aksiyalarni izlash.

2. **Ray Dalio – Diversifikatsiya orqali riskni boshqarish**

- Bir nechta turdagi aktivlardan balansli portfel yaratish.

3. **Benjamin Graham – Fundamental tahlil**

- Kompaniyaning moliyaviy hisobotlarini tahlil qilish orqali investitsiya qarorini qabul qilish.

**Xulosa**

Iste’mol, jamg‘arish va investitsiya — har bir insonning kundalik hayotida va butun iqtisodiyotda muhim o‘rin tutadigan tushunchalardir. Insonlar daromad topgach, uni bir qismini tovar va xizmatlarga sarflaydi (bu iste’mol bo‘ladi), qolgan qismini esa kelajakda foydalanish uchun saqlab qo‘yadi (bu jamg‘arishdir). Jamg‘arilgan mablag‘lar esa, o‘z navbatida, ishlab chiqarishga yoki boshqa foydali loyihalarga yo‘naltirilsa, bu investitsiyaga aylanadi. Bu uch tushuncha bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, iqtisodiyotning o‘sishi, barqarorligi va rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar;**

1.S.S.G’ulomov ,,Makroiqtisodiyot’’ darslik. Toshkent (2020y).
2.N.H.Xoliqulov,Q.X.Abdurahmonov,,Makroiqtisodiyot nazariyasi’’ o’quv qo’llanma.Toshkent (2019y).
3.E.I.Ergashev, N.S.Kasimova, U.K.Muxtorova, G.X.Nazarova, M.E.Jabbarov ,,Makroiqtisodiyot’’ darslik. Toshkent (2018y). 4.D.Q.Axmedov,
4. A.E.Ishmuxamedov, Q.X.Jumayev ,, Makroiqtisodiyot’’ o’quv qo’llanma Toshkent (2019y).
5. www.stat.uz- O’zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo’mitasi veb sayti.

## MILLIY XO’JALIK SIFATLI TIZIMI AMALIYOTIGA XOS MULOHAZALAR

**Ermatov Ilhomjon Ismoiljonovich**
*Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti Andijon fakulteti*
*“Mutaxassislik, ijtimoiy-gumanitar va aniq fanlar”*
*kafedrasi katta o`qituvchisi*
*Email : iiermatov@gmail.com:*
*+998-99-480-45-78*